

YOSH AVLODNI SOG'LOM IJTIMOIIY MUNOSABATGA TAYYORLASH.

A.D.Xoshimova

QDU Psixologiya kafedrası dotsenti
Imomaliyeva Dilnavoz rus tili va
adabiyoti 1-kurs talabasi.

ANNOTATSIYA

Mazkur ishda yosh avlodni sog'lom ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash masalasi yoritiladi. Jamiyat taraqqiyotida yoshlarning o'zaro hurmat, hamkorlik, bag'rikenglik va mas'uliyat kabi ijtimoiy fazilatlarni egallashi muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda yoshlarni sog'lom ijtimoiy muhitga moslashtirishning pedagogik va psixologik omillari, ta'lim-tarbiya jarayonining bu boradagi o'rni hamda samarali usul va vositalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy munosabatlar, sog'lom muhit, ta'lim-tarbiya jarayoni.

АННОТАЦИЯ.

В данной работе освещается вопрос подготовки подрастающего поколения к здоровым социальным отношениям. В развитии общества приобретает значение приобретение молодыми людьми таких социальных качеств, как взаимоуважение, сотрудничество, терпимость и ответственность. В исследовании анализируются педагогические и психологические факторы адаптации молодежи к здоровой социальной среде, роль в этом образовательно-воспитательного процесса, а также эффективные методы и средства.

Ключевые слова: социальные отношения, здоровая среда, учебно-воспитательный процесс.

ANNOTATION

In this work, the issue of preparing the younger generation for a healthy social relationship is covered. In the development of society, it is important that young people acquire social qualities such as mutual respect, cooperation, tolerance and responsibility. The study analyzes pedagogical and psychological factors of adaptation of young people to a healthy social environment, the role of the educational process in this regard, as well as effective methods and Means.

Keywords: social relations, healthy environment, educational process.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy sohalarida amalga oshirilayotgan tub islohotlar jarayonida oila masalasiga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

O'sib kelayotgan bolaning sog'lom voyaga yetishida oilaviy muhit muhim o'rin tutadi. Farzand - oilaning kuvonchi, ota-onaning tayanchi. Farzand dunyoga kelgan ekan, ota-ona uning baxtli-soadatli bo'lishini istaydi, barcha ezgu niyatlari, orzu-istaklarini uning taqdiri bilan bog'laydi, o'zining kelajagini ularning baxt-istiqbollarida ko'radi. Oqil, o'qimishli, odobli, or-nomusli, vijdonli, qo'yingki barcha ezgu 103 fazilatlarni o'zida mujassam qilgan farzandda ijtimoiy sifatlar namoyon bo'ladi.



Bizning kuzatishlarimiz shuni isbotladiki, oilaning to'liq bo'lishi, ya'ni, unda ham ota, ham onaning tinchlik-totuvlikda yashashlari va insoniy munosabatlar, sog'lom ma'naviy muhitning mavjudligi bolaning har tomonlama yaxshi rivojlanishi, sog'lom, aqlli, kuchli iroda sohibi bo'lib yetishiga imkon beradi. Bolaga ham otaning, ham onaning bo'lishi zarurati shu bilan izohlanadiki, masalan, qiz bola onasi va uning oilada o'zini tutishiga qarab, o'zini ayollar jinsiga taalluqli ekanligini anglashdan tashqari, kelajakda qanday ona bo'lishini tasavvur qilsa, otasiga, uning onasiga bo'lgan munosabatiga qarab, o'zini kelajakda oila qurganda qanday oila sohibasi bo'lishi lozimligini anglab boradi. Xuddi shunday, o'g'il bola onasining fazilatlari, oiladagi tutimi va otasiga munosabatini idrok qilib borar ekan, kelajakda qanday qiz bilan turmush qurish mumkinligi, tanlaydigan qizi qanday sifatlar sohibasi bo'lishi lozimligini bilib borsa, otasi va uning oilada mavqeiga qarab, o'zini erkak sifatida kelajakda tasavvur qilish bilan birgalikda turmush o'rtog'iga qanday munosabatda bo'lish lozimligi to'g'risida bilim va tasavvurlarini orttirib boradi. Bu psixologik qonuniyat bo'lib, shaxsning oiladagi shaxsiy va jinsiy ijtimoiylashuvining yetakchi tamoyili hisoblanadi. Shu bois ham bolaning tom ma'noda yaxshi tarbiya olib, jamiyatda va oilaviy munosabatlarda munosib mavqega ega bo'lishi uchun oila muhiti sog'lom, barqaror, er va xotin bir-birlariga g'amxo'r, mehrli va sadoqatli bo'lishlari o'ta muhimdir.

Demak, oila bolaning ijtimoiy munosabatlarga tayyor bo'lishida muhim ahamiyat kasb etgan pedagogik muhitdir. Shu bois ham olimlar oilaning eng muhim va dastlabki vazifalaridan ham birini tarbiyalovchi funksiyassi ekanligini doimo e'tirof etadilar. Lekin ayrim oilalarda er va xotin o'rtasida samimiy, iliq munosabatlarning yo'qligi, tashqi tomondan nomiga oila qurganliklari, ma'nan esa bir-birlariga nisbatan beganoday qolganliklari bois bu yerda o'zaro munosabatlar hamisha tarang, yuzaki bo'lib boradi. Tabiiy, bunday munosabatlar nafqat ularning o'ziga balki ularni o'rab turgan boshqa qarindoshlar, ayniqsa, farzandlarga faqat salbiy ta'sir etadi, yoshlarning ijtimoiylashuv jarayoniga to'g'anoq bo'lishi ham mumkin. “Ko'cha bolalari”, “tarbiyasi og'ir bolalar”, voyaga yetmay turib jinoyatga qo'l urgan o'smirlar aksariyat holatlarda aynan shunday oilaviy muhitning qurbonlari hisoblaandi.

Oilalar tarbiyasining ahamiyati shundaki, uning ta'sirida birinchidan, farzand katta, mustaqil hayotga, jumladan, oilaviy hayotga tayyorlanadi, o'ziga yarasha sifat va fazilatlarni shakllantirib boradi, ikkinchidan, har tomonlama yetuk, barkamol, aqlli, sog' va salomat shaxs bo'lib yetishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ya'ni, oila va undagi sog'lom ma'naviy muhit bolani jamiyatda yashashga, o'ziga o'xshash shaxslar bilan murosa qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish, kasb-hunarli bo'lish, muomalada axloq-odob qoidalariga bo'ysunishga o'rgatadi, psixologik jihatdan tayyorlaydi. Oilada bolani to'g'ri tarbiyalash uchun, ayniqsa, ota bolalar bilan birga bo'lishga, suhbatlashishga vaqt topishi, ularning turli savollariga javob berishi kerak. Bolalarning maktabdagi va uydagi ishlarini surishtirib, qanday narsalarga qiziqishini bilish zarur. O'g'il bolalarda qizlarga munosabat yoshlikdan oilada olgan tarbiyasiga qarab shakllanadi. Bunda otaning ibrat ko'rsatishi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Oilada erkak kishining rafiqasiga hurmat va sadoqati, uni bolalarining onasi sifatida ardoqlashi,





umuman erkakdagi dilovarlik, xotin-qizlarga iltifotlilik o'g'il bolalarda, qizlarga, ayollarga nisbatan hurmat hissini tarbiyalashda katta yordam beradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'g'il bolani tarbiyalashda unda otalik burchi hissini shakllantirib borish zarur. Bu esa otadan shaxsan namuna bo'lishni, o'zining zimmasidagi sharaflil vazifasini to'la-to'kis ado etishni taqozo qiladi. Tarbiya va oilaviy munosabatlarning shakllanishida jinsiy tafovutni e'tiborga olish lozim. Chunki, ayniqsa, o'g'il bolani tarbiyalash o'ziga xos xususiyatlarga ega. Garchi ayol va er teng xuquqli bo'lsalarda oilada erkak kishining o'rni va mas'uliyati alohida belgilanadi. O'g'il bolalarni asosiy og'irlikni o'zlariga olishga, ana shu yoshlikdan o'rgatish mas'uliyatni his qilishga kerak. Qizlarda oilada, tashqi ijtimoiy muhitda sog'lom munosabatlarni tarbiyalash uchun ularni birinchi navbatda ota onaga itoatda bo'lishga, ko'cha-kuyda o'zini tutishi, tashqi ko'rinishining axloq doirasida bo'lishiga odobning nozik tomonlariga o'rgatish kerak. Bu mas'uliyat avvala ona zimmasiga yuklanadi. Xalqimizda azaldan farzandlar bo'yi yetganda ona bo'lmish yurish-turishi, qo'ni qo'shnichilikda, atrofdagi insonlar bilan ijtimoiy munosabatlarda o'ziga katta talablar qo'ygan. Bu talablar esa muayyan ijobiy mazmunga ega bo'lgan.

Ayolning o'rni, mavqei nazokat va mehr shafqatda ekanini yoshlarga singdirish zarur bo'lib koldi. Bu borada yana sharqona, o'zbeklarga xos odob-ahloqni joriy etish, latofat bosiqlik, muloxazalilik, 105 xalq pedagogikasi andisha o'zini tuta bilishlikni tarbiyalash, durdonalaridan unumli foydalanish zarurligi borasida ko'p gapirila boshlandi. O'zbek oilalarida kichik yoshidanoq qizlarning kiyinishi, shaxsiy gigiyenasi, xatti-xarakati nazoratga olinadi. Qizlarga og'ir ish buyurilmaydi. Ularning ma'naviy tarbiyasiga katta e'tibor beriladi. qizlarning o'ziga xos iffati, kiyinish odobi, kishilar bilan munosabatda iboli, andishali bo'lish kabi ahloqiy sifatlar singdirib boriladi. Qizlarning odobi, ibosi va ma'naviy kamolotiga faqat oiladagina emas, balki jamiyat nuqtai nazaridan ko'proq e'tibor berish, ularning didi, madaniyat darajasini nazorat qilish maqsadga muvofiqdir. Oilada farzandlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishining iltimos, maslahat, ishontirishi, talab qilish, buyruq va tanbeh berish, jazolash, rag'batlantirish singari qator usullaridan o'z o'rnida va meyorida foydalanilmasa, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Ota-onalardagi samimiylik, g'amxoh'lik fazilatlarini farzandlar ruhiy dunyosiga katta ta'sir etadi, ruhlanish, to'lqinlanishi, shijoat, ehtirosni vujudga keltiradi. Ularning ibratli hislatlari, shaxsiy fazilatlarini, irodaviy sifatlarini, o'z-o'zini qo'lga olish kabi jihatlari yigit va qizlar qalbida o'chmas iz qoldiradi. Ota onaga nisbatan ishonch, intilishi moyillik hamdardlik sifatlarini shakllana boradi. Oilada ruhiy muhit, totuvlik mavjud bo'lishi uchun ota-onalarda haqiqiy ma'nodagi ma'naviyat hamda obro' mustahkam shakllangan bo'lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda: Yuksak ma'naviyatga ega ota-ona oilaning mohiyati, qadri, burch, mas'uliyat, oila vazifalari, oilada barkamol farzand tarbiyasi, oilani moddiy jihatdan ta'minlash, uning osoyishtaligini saqlash kabi vazifalarni anglab yetadi va unga amal qiladi. Yuksak ma'naviyatli ota-ona farzandlarini insonparvar, vatanparvar, axloqiy jihatdan pok, bilimli, kamtar, oliyjanob qilib tarbiyalaydi. Farzandlarda sog'lom ijtimoiy munosabatlar oilada ota-ona, katta





yoshdagi oila a'zolari ta'sirida shakllanadi. Oila qanchalik inoq, uyushgan va mustahkam bo'lsa, uning bola shaxsiga ta'siri ham shunchalik samarali bo'ladi. Bunday oila o'zining qadriyatlaridan tashqari, jamiyatning qadriyatlari, qonun qoidalar va meyorlarini hurmat qiladi, bola yoshligidan jamiyatda yashashga o'rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси 106 бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январь / Ш.М. Мирзиёев. – Тошкент, Ўзбекистон, 2017.
2. Кларин М.В.Инновации в мировой практике: обучение на основе исследования, игры и дискуссии-Рига, 1995.
3. Исмаилова Ш. Таълим жараёнига инновацион педагогик технологияларни тадбиқ қилиш шартлари. – Урганч, УрДУ нашриёти, 2015.
4. Мухсиева А.Абировва У. Оила педагогикаси.-Тошкент, “Lesson-Press”2023.
5. Подласый П. Педагогика-М., Владос, 2003. 6. Фитрат А. Оила. Тошкент.- “Маънавият”, 1998.

